

BOLANING PSIXIK TARAQQIYOTIDA YOSH DAVRLARNING AHAMIYATI**Xushmamatova Dilnoza Yormamat qizi**

Denov tadbirkorlik va pedagogika insituti talabasi.

xushmamatovadilnoza@gmail.com**Yuldoshev Tojiddin Abdulkarimovich**

Ilmiy rahbar.

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

“Pedagogika va psixologiya” kafedraasi o‘qituvchisi.

tojiddinyuldoshev1@gmail.com<https://orcid.org/0009-0005-2549><https://doi.org/10.5281/zenodo.18867023>

Annotatsiya. Ushbu maqolada bolaning psixik taraqqiyotiga yosh davrlarning ta'siri va ahamiyati, har bir davrning shaxs sifatida shakllanishdagi o'rni va rivojlanish jarayoniga bog'liqligi haqida fikr yuritiladi. Venalik vrach-psixolog Z. Freyd mazkur oqim namoyandasi sifatida shaxsning faolligini, uni harakatga keltiruvchi kuchlarni quyidagi tarzda tushuntirishga intiladi. Odam o'zining qadimiy hayvon tariqasidagi avlod-ajdodlaridan nasliy yo'l bilan o'tgan instinktiv mayllarning namoyon bo'layotgani tufayli oldi. Z.Freydning fikriga ko'ra, instinktiv mayllar asosan jinsiy instinktlar shaklida namoyon bo'ladi. Z.Freyd, shaxsning faolligini dastavval jinsiy mayllar bilan bog'laydi. Biroq instinktiv mayllar jamiyatda xuddi hayvonot olamidagidek erkin namoyon bo'lavermaydi.

Kalit so'zlar: Psixika taraqqiyot, yosh davrlar, oqimsotsiogenetik kontseptsiyasi, biogenetik, instinktiv mayllar, biologizatorlik, longityud, fiziologiya.

Kirish. Hozirgi davr, vaqt va jamiyatda insonlarning millat va xalq sifatida rivojlanishida albatta ta'lim tarbiya, shaxslararo muloqot madaniyatining rivojlanishi muhim omil hisoblanadi.

Barcha e'tibor va resurslar ta'limga qaratilgan hozirgi jamiyatda biz ham yashab faoliyat olib borayabmizmi demak, shaxs sifatida bu islohotlarga bee'tibor turishga qaysidir ma'noda haqqimiz yo'q. Inson shaxsining psixik rivojlanishi va uning shakllanishi murakkab tadqiqot jarayonidir.

Zero, uning o'ziga xos xususiyatlari va qonuniyatlarini asosli ilmiy bilish, o'quvchi shaxsiga pedagogik jihatdan ta'sir ko'rsatishning zarur shartidir. Inson - biosotsial mavjudotdir.

Uning birligi, bir tomondan, kishining psixik, tug'maravishda tashkil topgan xususiyatlari (masalan, ko'rish yoki eshitish sezgilarining, shuningdek, oliy nerv tuzilishining o'ziga xos xususiyatlari), ikkinchi tomondan esa faoliyatining ongli sub'ekti va ijtimoiy taraqqiyotning faol ishtirokchisi sifatida uning xulq-atvor (masalan, axloqiy odatlar) xususiyatlaridanamoyon bo'ladi.

Xo'sh, odam psixikasi va xatti-harakatlarida namoyon bo'ladigan bu xususiyatlarni nimalar sirasiga kiritish mumkin? Inson psixikasining tabiati biologik yoki inqilobiy xarakterga egami? Inson shaxsining tarkib topishi va psixik rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarning muammosi o'z mohiyati jihatidan g'oyaviy xarakterga ega,

Shu bois, bu masalani hal qilishda bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan turli oqimlar, yo'nalishlar maydonga kelgan. Inson shaxsining tarkib topishini tushuntirishdamaydonga kelgan birinchi oqim biogenetik kontseptsiya nazariyasi bo'lsa, ikkinchi oqimsotsiogenetik kontseptsiyadir.

Inson shaxsining tarkib topishini tushuntirishga intiluvchi biogenetik oqim XIX asrning ikkinchi yarmida maydonga kelgan. Bola psixik xususiyatlarining tug'ma tabiati haqidagi ma'lumot shu vaqtga qadar aksariyat psixologiya maktablarining asosini tashkil etib kelmoqda.

Mazkur ta'limot inson psixikasining barcha umumiy va individual xususiyatlari tabiat tomonidan belgilangan, uning biologik tuzilishiga tenglashtirilgandir, psixik rivojlanish esa, irsiy yo'l bilan azaldan belgilanib, inson organizmiga joylashtirilgan shu xususiyatlarning maromiga yetilish jarayonidan iborat deb ta'kidlaydi.

Ma'lumki, nasliy xususiyatlar tug'ma yo'l bilan nasldan naslga tayyor holda beriladi, biroq shunday bo'lishiga qaramay, bu oqim namoyondalari inson shaxsi va uning barcha xususiyatlari "ichki qonunlar" asosida, yani nasliy xususiyatlar negizida maydonga keladigan narsa, biologik omillarga bog'liqdir, deb ta'kidlaydilar. Biogenetik ta'limot, inson qobiliyatlarining rivojlanish darajasi (chunonchi, imkoniyatlarning chegarasi, uning eng yuksak nuqtasi) taqdir tomonidan belgilanib qo'yilganligini, o'quvchi imkoniyatlariva qobiliyatlarini maxsus testlar yordamida aniqlab, undan so'ng ta'lim jarayonini uning irsiyat tomonidan belgilangan taraqqiyot darajasiga moslashtirish, ularning aqliy iste'dod darajalariga mavqedagi maktablarda tahsil olishga zarur deb ta'kidlashadi.

Chunonchi, bu yo'nalish tarafdorlaridan. Venalik vrach-psixolog Z. Freyd mazkur oqim namoyandasi sifatida shaxsning faolligini, uni harakatga keltiruvchi kuchlarni quyidagi tarzda tushuntirishga intiladi. Odam o'zining qadimiy hayvon tariqasidagi avlod-ajdodlaridan nasliy yo'l bilan o'tgan instinktiv mayllarning namoyon bo'layotgani tufayli oldi. Z.Freydning fikriga ko'ra, instinktiv mayllar asosan jinsiy instinktlar shaklida namoyon bo'ladi. Z.Freyd, shaxsning faolligini dastavval jinsiy mayllar bilan bog'laydi. Biroq instinktiv mayllar jamiyatda xuddi hayvonot olamidagidek erkin namoyon bo'lavermaydi. Jamiyatdagi jamoa hayoti odamni, undagi mavjud instinktiv mayllarni (ya'ni, jinsiy mayllarni) juda ko'p jihatdan cheklab qo'yadi.

Oqibatda odam o'zining ko'p instinktlari va mayllarini bosishga, tormozlashga majbur bo'ladi. Uning ta'limotiga ko'ra, tormozlangan instinkt va mayllar yo'qolib ketmaydi, balki bizga noma'lum bo'lgan ongsizlik darajasiga o'tkazilib yuboriladi. Ongsizlik darajasidagi bunday instinktlar va mayllar harturli "komplektiv birlashadilar, go'yo inson shaxsi faolligining haqiqiy sababi ayni shu "Komplekslar"ni namoyon bo'lishidir. Z.Freydning ta'limotidan uning ochiqdan-ochiq biologizatorlik targ'ibotchisi ekanligini, inson shaxsining faolligini jinsiy mayllardan iborat ekanligi haqidagi nazariyasi emasligini e'tirof etish mumkin.

Psixologiya fani zamonaviy ta'limotga asoslangan holda inson shaxsining tarkib topishini asosan uchta omilning ta'siriga bog'liqligini dalillar asosida izoxlab beradi. Ulardan; - birinchisi - inson tug'ilib voyaga yetadigan tashqi ijtimoiy muhitning ta'siri; - ikkinchisi - odamga uzoq muddat davomida muntazam tarzda beriladigan ta'lim tarbiyaning ta'siri; - uchinchisi - odamga tug'ma ravishda, tayyor holda beriladigan nasliy xususiyatlarning ta'siridir.

Ma'lumki, har bir odam o'ziga xos, boshqalarda aynan takrorlanmaydigan ijtimoiy muxitda, aniq ijtimoiy munosabatlarda, ya'ni oila, jamoa va jamiyatda, odamlar orasida yashab ulg'ayadi, shakllanadi. Bu ijtimoiy munosabatlarga odam jamiyat a'zosi sifatida, ma'lum sinfnig, u yoki bu ijtimoiy guruhning namoyandasi sifatida va nihoyat, tashkil qilinganlik va uyushqoqlik darajasi turlicha bo'lgan muayyan jamoalarning faol a'zosi sifatida qatnashadi.

Bolalar psixologiyasi bolalarda psixik jarayonlar (ma'rifiy, nutqiy, hissiy, irodaviy va hokazo) paydo bo'lishi va rivojlanishini, psixik xususiyatlar qaror topishini, xilma-xil faoliyatning (o'yinlar, o'qish, mehnat) rivojlanishini, bolaning shaxs sifatida shakllanishini o'rganadi.

Bolalar psixologiyasi umumiy psixologiyada ishlab chiqilgan tadqiqot usullaridan foydalanadi, biroq uni qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari bor. Bola shaxsi yosh xususiyatlarini o'rganishda ko'ndalang, kesma va longityud deb nomlangan tadqiqotlar o'tkaziladi.

Birinchi holatda birgina psixik jarayonning o'zi bir vaqtda turli yosh guruhlariga taalluqli bo'lgan bolalarda tadqiq qilinadi. Ikkinchi holatda (longityud) esa ma'lum bir (alohida tanlab olingan) bolalarning psixik xususiyatlari ko'p yillar davomida tadqiq qilinadi. Bu esa o'z navbatida ular psixikasi rivojlanishining umumiy kechishini kuzatish imkoniyatini beradi.

Bolalar psixologiyasida asosan ota-onalarga bolaga unga bo'lgan ishonch, hurmat, qo'llab-quvvatlash, unga bo'lgan e'tiborlarini his qildirish. Mumkin bo'lgan va mumkin bo'lmagan holatlar o'rgatiladi.

O'smir hayotida mehnat, o'yin, sport va jamoat ishlari katta rol o'ynaydi. Ba'zilarining o'zlashtirishi pasayadi, intizomi bo'shashadi. Hozirgi davr o'smirlarining ruhiyatida quyidagi holatlar ko'zga tashlanadi:

1. Intellektual rivojlanish – tafakkur qobiliyati, aqliy faoliyatni yuqori saviyada tashkil etishni talab etadi, bilishga qiziqishi ortadi. Bu davrda to'garaklar, studiya, sektsiya, turli tadbirlar o'tkazish katta ahamiyatga ega. Ularning kitob o'qishga qiziqishi ortadi.

2. O'z-o'zini anglash, baholash, tarbiyalash shakllanadi. U o'zini boshqalar bilan solishtira boshlaydi. Ammo yuqoridagilar bilan bir qatorda o'smir harakterida murakkab qaramaqarshiliklar ham mavjud bo'ladi. Bu o'smir faoliyati, xulqida yangi xislatlar – yosh xususiyatning yangidan boshlanishi sanaladi. Turli to'garaklarga 21 foiz o'smir qatnashadi, qolganlari sport yoki musiqa bilan shug'ullanadi. 40foiz o'quvchida sinfdan tashqari ishlarda qatnashishda ham barqarorlik yo'q. Eng muhimqiziqish–tele eshittirishlarga qaratilgan. TVni har kuni 88 foiz o'smir tomosha qiladi. Ular oddiy kunni o'z ixtiyorlari bilan qanday o'tkazadilar, degan savolga javob topish uchun o'tkazilgan tadqiqot natijalari quyidagilarni qayd etdi: 85 foiz o'smir vaqtini o'z holicha o'tkazadi, 70 foizi kino yoki televizor ko'radi, 50 foizi sport bilan shug'ullanadi, 45 foizi uxlab yoki yotib dam oladi. Shuningdek, yomon baho olmaslik uchun maktabga bordigan o'smirlarning soni 15 foizni tashkil etadi. O'smirlarda biror narsaga erishishga nisbatan talab rivojlanadi.

Bolalardagi agressivlikni bartaraf etish uchun ularga quyidagilarni taklif qilish mumkin:

1. yostiq bilan jang qilish;
2. jismoniy harakatli o'yinlardan foydalanish;
3. qog'ozni yirtish;
4. janjalga kelayotgan odamning rasmini chizish va yirtish;
5. "qichqiriq sumkasi"dan foydalanish;
6. psixogimnastika bilan shug'ullanish;
7. ertalabki terapiya, isoterapiya (loy, suv bilan ishlash), art-terapiya, musiqa terapiyasi, hayvon terapiyasi – uy hayvonlaridan foydalanish.

"Art-terapiya" atamasi ikki so'zdan iborat. "Therapy" so'zi davolashni anglatadi va yunoncha "therapy" so'zidan olingan, "art" esa inglizcha so'zdan kelib chiqqan. San'at orqali davolash art-terapiya deb ataladi. San'at va ijodga asoslangan psixoterapiyaning eng yangi va eng tez rivojlanayotgan kichik ixtisosliklaridan biri art-terapiya hisoblanadi. Bu shaxsning psixologik muammolarini tashxislash, tuzatish va terapiya qilishni o'z ichiga oladi. Psixoterapiyaning eng muvaffaqiyatli shakllaridan biri sanaladigan san'at terapiyasi tasavvurni rag'batlantiradi va turli badiiy vositalardan foydalanadi. San'at terapiyasi tuzatishning eng muloyim va samarali shakli deb hisoblanadi.

Bu ijtimoiy moslashuv muammolaridan boshlab bolalarning kelajakdagi rivojlanishigacha bo'lgan turli masalalarga yechim topishga imkon beradi. Bolaning o'zini ifodalash qobiliyati va o'zini anglash jarayonini egallashi san'at terapiyasining asosiy maqsadlari hisoblanadi. Hozirgi kunda "art terapiya" bir nechta narsani anglatishi mumkin:

1. davolash va tuzatishda qo'llaniladigan san'at to'plami;
2. art terapiya texnikalari to'plami;
3. psixoterapevtik va psixokorreksion amaliyot yo'nalishi;
4. usul.

Zamonaviy art terapiya quyidagi sohalarni o'z ichiga oladi:

1. Isoterapiya - badiiy san'at yordamida terapevtik ta'sir: rasm chizish, modellash, san'at va hunarmandchilik.

2. Imoterapiya – tasvir, teatrlashtirish, dramatizatsiya orqali ta'sir; muzikoterapiya – musiqani idrok etish orqali ta'sir; ertak terapiyasi – ertaklar, masallar, afsonalar orqali ta'sir;

3. Kineziterapiya – raqs va harakatlar orqali ta'sir; drama terapiyasi

4. Qum terapiyasi, fototerapiya

5. Korektiv ritm (harakatlar bilan ta'sir), xoreoterapiya; o'yin terapiyasi va boshqalar.

Sanat terapiyasi kursini tamomlagach, bola o'zini anglash, o'zini ifodalash va ichki kuzatuv bilan shug'ullanadi, natijada uning ruhiy holati uyg'unlashadi. Sanat terapiyasi individual va guruh darslari shaklida o'tkaziladi.

1. San'at terapiyasi
2. Individual
3. Individual san'at terapiyasi.

Ma'lumki, buzuvchilik (subversion) va agressivlik kabi insonning asosiy xususiyatlari o'zaro chambarchas bog'liq. Psixologiya agressiyani boshqalar ustidan hukmronlik qilish yoki ularni bo'ysundirish niyatida haqiqiy harakat yoki fantaziya shaklini oladigan moyillik (intilish) deb ta'riflaydi.

Xulosa. Turli zamonlarga qarab bolalar psixikasida turli-xil o'zgarishlar yuz beradi.

Kuchli psixolog va pedagoglar ularning psixik taraqqiyotini o'rganib borishadi va tahlil etishadi. Bola yosh davrlarga qarab o'zgarib psixik jihatdan ijtimoiy hayotga moslashib taraqqiyot etib boradi. Biron bir yosh davrlarda kuchli psixik travma yoki og'ish olsa, keyinchalik bu uning keying yosh davrlari rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bola har bir yoshida o'ziga kerakli bo'lgan jihatlarni olib borishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. E. G'oziyev «Umumiy psixologiya Psixologiya» mutaxassisligi uchun darslik Toshkent-«Universiteti»-2017 yil
2. Amaliy psixologiya (N.Boymurodov) Toshkent-2015
3. Umumiy psixologiya (N.Zufarova) Toshkent-2018
3. T. Yuldoshev Umumiy psixologiya O'quv qo'llanma Tosh "Firdavs-Shox" nashriyoti.- 2024
4. Abduraimovich, Y. T., & Melikmurodovich, S. U. B. (2022). Art Therapy in Eliminating Aggressiveness in the Individual. Global Scientific Review, 9, 1-

5. Melikboboyevich, S. U., & Yusufaliyevna, H. S. (2024). Educator's Skill in Eliminating Aggressive Situations of Children Raised in Preschool Education Organization. Samaraly Ta'lim Va Barqaror innovatsiyalar Jurnali, 1(6), 611-616b.
6. Abdukarimovich, Yuldoshev T. "Forming Spiritual Morals and Developing Positive Qualities of Husband and Wife in the Family." *World Bulletin of Social Sciences*, vol. 14, 24 Sep. 2022, pp. 22-24.
7. Abdukarimovich, Yuldoshev T. "Pedagogical Direction Cooperation Between Family And Educational Organization." *European Scholar Journal*, vol. 2, no. 4, 2021, pp. 137-140.
8. International Conference on Advance Research in Humanities, Sciences and Education USA CONFERENCE <https://conferencea.org> February 28th 2023 183 DIVORCE AND WAYS TO PREVENT IT Yuldoshev Tojiddin Abdukarimovich